

RAUF PARFI VA UILYAM SHEKSPIR SONETLARIDA BADIY TASVIR VOSITALARI

Qayumova Nigora Muxtorovna

Buxoro davlat universiteti,

Fakultetlararo chet tillar kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22006224>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek sonetchiligining o'ziga xos jihatlari, badiiy-estetik vazifalari tadqiq qilinadi. Maqolada Rauf Parfi va Uilyam Shekspir sonetlarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalarining qiyosiy tahlili keltiriladi.

Kalit so'zlar: Rauf Parfi, Uilyam Shekspir, sonet, badiiy tasvir vositalari, poetika, ramz, qiyosiy adabiyotshunoslik

G'arb she'riyatining o'ziga xos janrlaridan biri sonet bo'lib, XX asrda o'zbek she'riyatiga kirib keldi. Italian she'riyatidan ingliz she'riyatiga o'tgan bu janrda Shekspir, Bayron singari shoirlar barakali ijod qildilar. O'zbek she'riyatida sonetning ilk namunasini Usmon Nosir yozgan bo'lsa, Rauf Parfi rivojlantirdi. Shekspir va Rauf Parfi sonetlari badiiy jihatdan yuksakligi bilan dunyo sonetchiligida alohida o'rin tutadi.

Sonet G'arb lirikasining o'ziga xos janri bo'lib, o'zbek she'riyatiga XX asrda kirib keldi. "Sonet" italyancha so'z bo'lib, "qo'shiq" degan ma'noga ega. O'n to'rt misradan iborat, ikkita katren, ikkita tersetni o'z ichiga oladigan, qat'iy she'r shakllaridan biri sonet [5,258] deyiladi. Atoqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul shunday yozadi: "Sonet xuddi Sharq she'riyatidagi g'azal va ruboiyga o'xshab yuksak talab, qat'iy qonun-qoida, daxlsiz shartlarga tobe janrdır".

Badiiy tilning eng muhim xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni ko'rsatildi. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib "badiiy tasvir va ifoda vositalari" deb ataladi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiyestetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan normadan og'ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to'laqonli bo'lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi[1,226].

Tilshunoslikda badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib "badiiy tasvir va ifoda vositalari" deb ataladi. Avvalgi faslda aytilganidek, badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik(tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda "poetik vositalar", "sintaktik figuralar", "stilistik figuralar" kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning bunisi tasvir, bunisi ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi[5].

O'zbek va ingliz she'riyatiga yuzlab sonetlarini taqdim etgan ikki buyuk shoirlar Rauf Parfi hamda Uilyam Shekspir ham o'z sonetlarida turli badiiy tasvir vositalarini qo'llashgan. Rauf Parfi sonetlarida eng ko'p qo'llanilgan badiiy vositalardan biri metaforadir. Metafora orqali shoir muayyan bir tushunchani ramziy obrazlar orqali ifoda etadi. Masalan, Rauf Parfining "Mikelanjelo sevgisi" nomli sonetlar turkumini tahlil qilsak:

1. Muqaddas tosh, mening sevgim, anduhim,

Raddi balo bo'lur bu ishq xanjari.

Dunyoni to'ldirib uchadir ruhim,

Sen qaysi makonda? Manzildan nari.
 Ufqqa bosh urar dengiz devori,
 Yurakda isyonning issiq xunlari.
 Jimirlar shafqati yolg'on g'amxorim,
 Kelur oqchorloqning achchiq unlari.
 Dengiz, oqchorloqqa tilayman bardosh,
 Unga lochin shiddatini ber, qani,
 Bag'ringga olmay tur, qanoti singan...
 Saodat bag'ishla, ey muqaddas tosh,
 Bu cheksiz og'riqdan xalos et meni.
 Menga ilhom kerak, mangulik senga[8,14].

Shoir ushbu sonetda sevgi, iztirob, ruhiy kurash va insonparvarlik g'oyalarini ifodalash uchun turli badiiy tasvir vositalaridan foydalangan. Jumladan, "ishq xanjari", "dengiz devori", "cheksiz og'riq" iboralari orqali shoir metafora san'atini qo'llagan. "Ishq xanjari" iborasi sevgining inson qalbiga azob va og'riq keltiruvchi kuch ekanini ifodalaydi. Shuningdek, "qurolim sevgimdir", "uning o'qlari" kabi iboralarda ham sevgi kurash vositasi sifatida tasvirlangan. Bu metaforalar orqali shoir sevgisini insonni himoya qiluvchi ma'naviy kuch sifatida ko'rsatadi. Yuqoridagi sonetda yana bir vosita jonlantirish (personifikatsiya) san'atidan samarali foydalanilgan: "Dunyoni to'ldirib uchadir ruhim", "Ufqqa bosh urar dengiz devori", "Qish quyoshi kezar xayolga cho'mib" misralarida jonsiz tabiat inson kabi harakat qiluvchi obraz sifatida tasvirlangan. Bu usul lirik qahramonning ruhiy holatini tabiat manzaralari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. "Yer – yo hayot, yo mamotdan iborat" misralarida qarama-qarshi tushunchalarni qo'llash orqali antiteza san'ati yuzaga kelgan va bu orqali sonetdagi falsafiy mazmun kuchaytirilgan. "Borliq yonsa, quyosh aylansa kulga", "Yulduzlarni yulsalar" misralari orqali sonetda giperbola ya'ni voqelikni bo'rttirib tasvirlash usulidan foydalanilgan.

Shekspir sonetlari tahliliga qaraydigan bo'lsak, uning mashhur sonetlaridan biri "Shall I compare thee to a summer's day?" deb boshlanuvchi 18-sonetini olamiz:

Shall I compare thee to a summer's day?
 Thou art more lovely and more temperate:
 Rough winds do shake the darling buds of May,
 And summer's lease hath all too short a date; [7].

Butun sonet tub mohiyatiga ko'ra, mahbubaning qiyofasini yoz fasli bilan qiyoslovchi ulkan va kengaytirilgan metafora asosiga qurilgan. Ammo shoir sevgilisini shunchaki yozga tenglashtirmoqchi emas, balki uning go'zalligi fasllar almashinuvidan ham ustun ekanligini ta'kidlaydi. Masalan, quyoshni "the eye of heaven" (osmonning ko'zi) iborasi orqali unga ham ulug'vorlik, ham koinotni kuzatib turuvchi hushyor nigoh timsolini beradi. Sonetda jonsiz narsalar, hodisalar va mavhum tushunchalarga insoniy fazilatlarni berish ya'ni jonlantirish (personifikatsiya) san'ati ham qo'llangan. "Round winds do shake the darling buds of May" misralarida shamol shunchaki tabiiy hodisa emas, balki g'unchalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'layotgan qaysar bir kuch sifatida gavdalanadi. "Nor shall death brag thou wand'rest in his shade" misralarida o'lim mag'ruq va maqtanchoq shaxs sifatida gavdalanitiriladi. Ammo shoir o'limning mahbubaga nisbatan o'z hukmini o'tkaza olmasligini ta'kidlab, uning "manmanligi"ga chek qo'yadi. Shoirning sonetlariga mahorat bilan yondashganligini yana bir san'at orqali ko'rishimiz mumkin. Shekspir bir xil undosh tovushlarni

yonma-yon qo'llash (alliteratsiya) orqali misralarga o'zgacha ritm va joziba bag'ishlaydi. 18-sonetning dastlabki satrlarida "s" tovushi takrori mayin shivirlash effektini berib, suhbatning nafisligini ta'minlaydi. "Sometime too hot the eye of the heaven shines" misralaridagi "i" tovushi jazirama havoning tebranishini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala shoir yaratgan sonetlar jahon adabiyotida sonet janrining yuksak namunalari hisoblanadi. Badiiy tasvir vositalari – metafora, tashbeh, jonlantirish, antiteza, alliteratsiya – har ikkala ijodkor sonetlarida muhim estetik vazifani bajaradi. Ular sonetlarning badiiy ta'sirchanligini kuchaytiradi va turli mavzularning chuqur falsafiy mazmunini ochib beradi. Rauf Parfi sonetlarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalar ko'proq falsafiy xarakterga ega bo'lib, ular inson ruhiyati va ma'naviy kurashni aks ettiradi. Uning ijod namunalari tabiat obrazlari inson ichki holatining ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shekspir sonetlarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari ko'proq go'zallik, vaqt va sevgi mavzusini yoritishga xizmat qiladi. U tabiat obrazlari orqali inson go'zalligini tasvirlaydi va uning abadiyligini she'riyat bilan bog'laydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2010. – 227b.
2. Qayumova, Nigora. "DUNYO SONETCHILIGIGA NAZAR." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 41.41 (2023).
3. Qayumova, Nigora. "The Genre Sonnet in the Poesis of Shakespeare." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 32.32 (2023).
4. Qayumova, Nigora. "Formal and Contentual Coherence in the Sonnets of Rauf Parfi and Shakespeare." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 33.33 (2023).
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademyashr, 2010. – 308b.
6. Rauf Parfi O'zbek. Tavba: She'rlar – Toshkent.: Yozuvchi, 2000. B.22.www.ziyouz.com kutubxonasi
7. <https://www.poetryfoundation.org/poems/45087/sonnet-18-shall-i-compare-thee-to-a-summer-day>